

Rajabov Asliddin Xolmirzayevich

Toshkent amaliy fanlar universiteti

raqamli va fundamental fanlar kafedrası

katta o'qituvchisi

rajabovasliddin254@gmail.com

IAKT FANI YORDAMIDA TALABALARNING IQTISODIY AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK VAZIFALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" (IAKT) fani doirasida talabalarning iqtisodiy axborot kompetentligini rivojlantirishning strategik vazifalari ilmiy asosda tadqiq etilgan. Iqtisodiy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning integratsiyasi, iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, analitik fikrlashni rivojlantirish va iqtisodiy axborot resurslaridan samarali foydalanishning didaktik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, IAKT fani talabalarda iqtisodiy axborot bilan ishlash madaniyatini, axborotlarni tahlil qilishni, statistik ma'lumotlardan foydalanishni shakllantirishda muhim o'rin tutishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy axborot kompetentlig, raqamli iqtisodiy ta'lim, IAKT.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ДИСЦИПЛИНЫ ИКТ

Аннотация. В данной статье научно исследованы стратегические задачи развития экономической информационной компетентности студентов в рамках дисциплины "Информационно-коммуникационные технологии в экономике" (ИКТ). Проанализированы дидактические основы интеграции цифровых технологий в процесс экономического образования, формирования навыков обработки экономических данных, развития аналитического мышления и эффективного использования экономических информационных ресурсов. Согласно результатам исследования, дисциплина ИКТ играет важную роль в формировании у студентов культуры работы с экономической информацией, умений анализа данных и использования статистических материалов.

Ключевые слова: экономико-информационная компетентность, цифровое экономическое образование, ИКТ.

STRATEGIC TASKS OF DEVELOPING STUDENTS' ECONOMIC INFORMATION COMPETENCE THROUGH THE ICT DISCIPLINE

Annotation. This article scientifically examines the strategic tasks of developing students' economic information competence within the framework of the discipline "Information and Communication Technologies in Economics" (ICTE). The didactic foundations of integrating digital technologies into the process of economic education, developing skills for processing economic data, fostering analytical thinking, and effectively utilizing economic information resources are analyzed. According to the research results, the ICTE discipline plays a crucial role in shaping students' culture of working with economic information, developing data analysis skills, and applying statistical information.

Keywords: economic information competence, digital economic education, ICT.

Raqamli iqtisodiy rivojlanish sharoitida iqtisodiy axborot bilan ishlash madaniyatiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni

rivojlantirish chora-tadbirlari"ga doir qarorlarida iqtisodiyotni raqamlashtirish, axborot tizimlarini modernizatsiya qilish hamda kadrlar tayyorlash tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish vazifalari belgilangan.

Bu farmonning iqtisodiy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali raqamli ko'nikmalarini shakllantirish (talabalar elektron jadvallar, ma'lumotlar ba'zalari va statistik dasturlar bilan ishlash), elektron tijoratni o'rganish (elektron tijoratni rivojlantirish, elektron savdo platformalari, elektron to'lov tizimlari va raqamli marketing), axborot xavfsizligi (talabalar moliyaviy hisoborlarini himoyalash, ma'lumotlarni shifrlash va xavfsiz saqlash), analitik fikrlarni rivojlantirish (iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, pragnozlash, bozor narxlarining o'zgarishini raqamli dasturlar yordamida tahlil qilish) ga ahamiyat qaratilgan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda IAKT (Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) fani talabalarning iqtisodiy axborot kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy fanlardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Chunki IAKT fani nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki iqtisodiy axborotni izlash, tahlil qilish, modellashtirish va talqin etish jarayonlarini ham qamrab oladi.

Talabalarning iqtisodiy axborot kompetentligini rivojlantirish — bu ularning iqtisodiy jarayonlarni raqamli muhitda anglash, iqtisodiy ma'lumotlardan foydalangan holda qaror qabul qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish va iqtisodiy axborot tizimlaridan foydalanish sifatlarini shakllantirishdir.

Ushbu maqolaning maqsadi — IAKT fani asosida talabalarning iqtisodiy axborot kompetentligini rivojlantirishning strategik vazifalarini ilmiy asosda tahlil qilish, mavjud nazariy qarashlarni o'rganish va tadqiqot natijalariga tayangan holda samarali metodik yo'nalishlarni ishlab chiqishdan iborat.

Xalqaro va mahalliy manbalarda axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga tatbiqi, iqtisodiy savodxonlik va iqtisodiy axborot kompetentligini shakllantirish masalalari keng o'rganilgan.

J. Dewey (2018) ta'lim jarayonidagi faoliyatga asoslangan tajribalar orqali o'rganishni asoslab, iqtisodiy axborotni o'zlashtirishda interaktiv va virtual o'quv vositalarining ahamiyatini ta'kidlaydi.

U iqtisodiy ma'lumotlarni faqatgina statistik ko'rsatkich sifatida emas, balki ijtimoiy qadriyatlar va demokratik jarayonlar bilan bog'liq axborot tizimi sifatida talqin qiladi.

J. Dewey iqtisodiy axborotlar jamiyat extiyojarini aniqlash, demokratik qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolatni ta'minlash, ta'lim va fuqarolik ongini rivojlantirish uchun xizmat qilishi kerak degan g'oyani ilgari suradi.

J. Dewey o'zining "*Pragmatic Philosophy as a Critique of Economic Discourse*" (Dewey Studies, 2019) maqolasida iqtisodiy axborotlarga ahamiyat qaratadi.

IAKT fani vositasida iqtisodiyot yo'nalishi talabalarining iqtisodiy axborot kompetentligini rivojlantirishda quyidagi strategik vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish. Bunda talabalarning iqtisodiy axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Axborot oqimlarini baholash, ishonchli va noto'g'ri ma'lumotlarni ajrata olishni o'rgatish;

- raqamli texnologiyalarni iqtisodiy faoliyatga tadbiq etish. Bunda 1C, SAP, Excel, SPSS, Stata, Power BI kabi iqtisodiy va statistik dasturlarni amaliyotda qo'llash, bulut texnologiyalari va elektron biznes tizimlaridan samarali foydalanishga tayyorlash;

- talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarini shakllantirish. Bunda iqtisodiy ma'lumotlarning maxfiyligini, yaxlitligini va xavfsizligini ta'minlash strategiyalarini o'rgatish, kiberxavfsizlik asoslarini iqtisodiy jarayonlar bilan bog'lash;

- tahliliy va pragnozlash kompetentligini rivojlantirish. Big Data va Data Science usullaridan iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilishda foydalanish, sun'iy intellekt va moshinaviy o'rganish modellarini iqtisodiy tahlilga tadbiq qilish;

-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda AKTdan foydalanish. Bunda raqamli modellash va simulyatsiya usullarini o'rganish, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (Data-driven decision making) ko'nikmalarini shakllantirish;

-innovatsion iqtisodiyotga moslashish. Bunda elektron tijorat, fintech, blokchayn va raqamli valyutalar kabi zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiy amaliyotga qo'llash, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida ishlash kompetentligini oshirish;

-axborot madaniyati va kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirish. Bunda Talabalarni iqtisodiy ma'lumotlarni to'g'ri taqdim etish, vizualizatsiya qilish va axborotni samarali almashishga o'rgatish, jamoaviy va masofaviy ish jarayonlarida raqamli vositalardan foydalanish kabilardir

Yuqorida sanab o'tilgan strategik vazifalar raqamli iqtisodiyot sharoitida samarali ishlay oladigan, ma'lumotga asoslangan qaror qabul qila oladigan va innovatsion yondashuvlarga tayyor mutaxassis sifatida shakllantirishda xizmat qiladi.

Sanab o'tilgan strategik vazifalarni amalga oshirish jarayonida quyidagi tadqiqot metodlariga tayaniladi:

Nazariy tahlil — iqtisodiy axborot kompetentligining tarkibi, mezonlari, IAKT fanining didaktik imkoniyatlari o'rganiladi.

Ekspirimental tahlil — iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida o'tkazildi.

Diagnostik metodlar — kompetentlik darajasini o'lchovchi test, iqtisodiy axborot bilan ishlash bo'yicha amaliy topshiriqlar, analitik ko'nikmalarni baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Statistik tahlil — t-test, dispersiya tahlili orqali eksperiment natijalari matematik asoslanadi.

Ekspirimentda IAKT fanining iqtisodiy yo'nalishga moslashtirilgan modul dasturi qo'llanidi:

iqtisodiy ma'lumotlar bazalari bilan ishlash (Excel, SPSS, Stata);

iqtisodiy axborot tizimlari (ERP, CRM);

grafik analitika (Power BI, Tableau);

iqtisodiy modellashtirish (Python, R paketlari asosida).

Ekspiriment natijalariga ko'ra, IAKT faniga iqtisodiy yo'nalishdagi kontent integratsiya qilinganida talabalarda quyidagi natijalarni ko'rish mumkin:

1. Raqamli iqtisodiy vositalar talabalarda iqtisodiy jarayonlarni tushunish samaradorligini oshiradi,

2. Iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida amaliy topshiriqlarning roli katta bo'ladi.

3. IAKT fani talabalarda iqtisodiy fikrlashning zamonaviy indikatorlarini shakllantiradi.

Tadqiqot IAKT fanining iqtisodiy ta'lim bilan integratsiyalashuvi quyidagi strategik vazifalarni hal qilishini ko'rsatadi;

- Iqtisodiy axborot resurslari bilan ishlash strategiyasini shakllantirish; Talabalar iqtisodiy ma'lumotlar bazalarini izlash, filtrlash, tizimlashtirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni solishtirish bo'yicha mustahkam ko'nikmalarga ega bo'ladi;

- Analitik fikrlashni rivojlantirish; IAKT orqali statistik paketlar, grafik tahlil vositalaridan foydalanish talabalarda o'zaro bog'liq iqtisodiy jarayonlarni mantiqiy talqin qilish imkonini kengaytiradi;

- Raqamli iqtisodiy modellashtirish kompetentligini shakllantirish; IAKT fanining Python, Excel modellariga oid bo'limlari talabalarga iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishni o'rgatadi;

- O'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy bilim olish madaniyati; Raqamli vositalar, onlayn iqtisodiy manbalar (Trading Economics, WorldBank Data, IMF Data) mustaqil o'rganish faoliyatini kuchaytiradi;

- Ta'lim jarayonida innovatsion iqtisodiy texnologiyalarni tatbiq etish; Simulyatorlar (MarketSim, SimTrade), virtual iqtisodiy o'yinlar iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonini real holatlarga yaqinlashtiradi.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllandi:

- IAKT fani talabalarning iqtisodiy axborot kompetentligini rivojlantirishda markaziy o'rin tutadi, chunki u iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va modellashtirish jarayonlarini qamrab oladi;

- Raqamli iqtisodiy vositalarni o'quv jarayoniga qo'shish talabalarda analitik fikrlash, iqtisodiy tafakkur va axborot madaniyatini oshiradi;

- Strategik vazifa sifatida iqtisodiy axborot kompetentligini IAKT fani bilan integratsiya qilish innovatsion ta'lim modelini yaratadi, bu esa iqtisodiyotni raqamlashtirish bo'yicha davlat siyosatiga mos keladi;

- Kelgusida tadqiqot iqtisodiy modellashtirishning sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlarini, AR/VR yordamida iqtisodiy jarayonlarni vizual simulyatsiya qilish imkoniyatlarini o'rganishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey, J. (2018). Experience and Education. New York: Macmillan.
2. UNESCO (2021). Digital Education Report. Paris.
3. Mamatov, S. (2022). Raqamli iqtisodiy ta'limning innovatsion metodlari. Oliy ta'lim jurnali, №3.
4. Qodirov, A. (2023). Raqamli ta'lim metodlari. Toshkent.
5. A.Rajabov. TALABALARNING IQTISODIY AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI (2024)
6. Rajabov A.X [TALABALARNING IQTISODIY AXBOROT KOMPOTENTLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR](#) - Eurasian Journal of Academic Research, 2024